VI-SHO‘BA
ETNOPEDAGOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MEXANIZMLARI

Boymanova. M. I.
FarDU tayanch doktoranti

TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNING MILLIY TA’LIM TIZIMIMIZDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *TALIS xalqaro baholash dasturi asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mavzusi dolzarb ta’limiy ilmiy mavzu bo’lib,mazkur maqolada milliy ta’lim sifatini oshirish va modernizatsiyalashtirish uchun ilg’or horijiy xalqaro baholash dasturi TALIS tadqiqoti o’rganilib,u asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ta’lim tizimidagi o’rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritib berilgan.*

Аннотация: *Тема повышения профессиональной компетентности будущих учителей на основе международной программы оценки TALIS является актуальной образовательной и научной темой. В данной статье рассматриваются исследования передовых зарубежных международных программ оценки TALIS для повышения и модернизации качества отечественного образования, и на их основе раскрывается роль и значение повышения профессиональной компетентности будущих учителей в системе образования.*

Abstract: *The topic of improving the professional competence of future teachers based on the TALIS international assessment program is a relevant educational and scientific topic. This article examines the research of advanced foreign international assessment programs TALIS to improve and modernize the quality of national education, and based on it, provides insights into the role and importance of improving the professional competence of future teachers in the education system.*

Kalit so’zlar:*ta’lim, modernizatsiyalash, inson kapitali, bilim, ko’nikma, kompetentsiya,TALIS*

Ключевые слова: *образование,модернизация,человеческий капитал, знания, навыки, компетенции, TALIS,*

Keywords: *education, modernization, human capital, knowledge, skills, competence, TALIS*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar xalqaro mezon va talablari asosida ularni baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman

oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma‘lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopediyalar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma‘lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma‘lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi darajaga tushib qoldi. Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta‘lim sifatini oshirishga, xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish masalasini alohida ta‘kidlab o‘tdi. Shunga asoslanib yurtimizning juda ko‘plab joylarida „Xalqaro baholash dasturlari-ta‘lim sifatini oshirishning muhim omili‘‘ mavzularida seminar-treninglar tashkil qilina boshlandi. Bundan maqsad shuki, albatta ta‘lim jarayonini rivojlantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirish, o‘y-tafakkurini kengaytirish, bilish jarayonlarini mustahkamlash, shu bilan birgalikda barchani faollikka undash bo‘lib hisobolanadi.

O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli qarorida Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish nazarda tutilganini hisobga olsak, ushbu maqsadni amalga oshirishda asosiy ishtirokchilardan biri hisoblanga o’qituvchilarning ham ahamiyatini e’tirof etish zarur. O’qituvchilarning kasbiy malakasi,mehnat sharoitlari va ta’lim tizimidagi rahbarlik faoliyati ta’lim sifati va o’quvchilarning yutuqlariga bevosita muhim ta’sir ko’rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda xalqaro tadqiqotlar va baholash dasturlari shu jumladan TALIS (Teaching and Learning International Survey) o’qitish va o’rganish bo’yicha xalqaro tadqiqot alohida o’rin egallaydi.

Xalqaro baholash dasturlari orasida TALIS (The Teaching and Learning International Survey) alohida o’rin tutadi. Mazkur dastur o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini, ta’lim sifatini ta’minlashdagi roli hamda pedagogik kompetentsiyalarini chuqur o’rganish imkonini beradi. TALIS natijalari dunyo mamlakatlarida o’qituvchilar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim manba sifatida qo’llanilmoqda. Shu bois TALIS xalqaro baholash dasturining ilmiy-amaliy yondashuvlarini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish,bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida kompetentsiyaviy yondashuvni kuchaytirish dolzarb ilmiy muammo bo’lib hisoblanadi.

TALIS dasturi ilk bor 2008-yilda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tashabbusi bilan joriy etilgan bo’lib, o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini,ish sharoitlarini, ta’lim jarayonidagi metodik yondashuvlarni hamda ularning professional rivojlanish imkoniyatlarini o’rganishga qaratilgan. Bugungi kunda TALIS 40 dan ortiq mamlakatlarni qamrab olib,global miqyosda ta’lim sifatini baholashda eng ishonchli manbalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

TALIS dasturining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- O’qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini baholash va rivojlantirish yo’nalishlarini aniqlash;
- Ta’lim jarayonida qo’llanilayotgan metodlar,uslublar va yondashuvlarning samaradorligini o’rganish;
- O’qituvchilarning malaka oshirish,innovatsion texnologiyalarni qo’llash imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Turli mamlakatlardagi ta’lim tajribalarini taqqoslab, eng yahshi amaliyotlarni ommalashtirish

TALIS dasturi doirasida o’tkaziladigan so’rovnomalar,kuzatuvlar va tahlillar natijasida quyidagi yo’nalishlar bo’yicha muhim ma’lumotlar olinadi.

- O’qituvchilarning pedagogik faoliyatga bo’lgan munosabati;
- Ularning dars jarayonida qo’llaydigan metodlari;
- O’quvchilarning bilim sifatini oshirishdagi yondashuvlar
- O’qituvchilarning malaka oshirishda duch kelayotgan muammolari
- Maktab rahbariyatining pedagogik jarayondagi roli

O’zbekiston oliy ta’lim tizimida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish,uni rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yangilash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xalqaro baholash dasturlari orasida o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini ,dars berish jarayonidagi yondashuvlarni va malaka oshirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur dastur orqali turli mamlakatlarda o’qituvchilarning kasbiy kompetentsiya darajasi,ta’lim dasturiga innovatsiyalarni tatbiq etish holati,shuningdek ,maktab rahbariyatining qo’llab-quvvatlash mexanizmlari o’rganiladi.

TALIS natijalarining tahlili shuni ko’rsatadiki,yuqori ta’lim natijalariga erishgan davlatlarda o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga muntazam e’tibor qaratiladi. Masalan, Finlandiya , Singapur va Estoniya kabi mamlakatlarda pedagoglarning malakasini oshirish majburiy va uzluksiz jarayon sifatida yo’lga qo’yilgan. Natijada, ushbu davlatlarda o’qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi yuqori darajada shakllangan,ta’lim sifati esa xalqaro reytinglarda yetakchi o’rinlarni egallab kelmoqda.

Milliy ta’lim tizimimiz rivojlanishida TALIS dasturida qayd etilgan mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan

- O’qituvchilarning malaka oshirish kurslarida ishtiroki- hozirda respublikada malaka oshirish institutlari faoliyat yuritmoqda. Ammo TALIS mezonlariga ko’ra, malaka oshirish jarayonida o’qituvchilarning ehtiyojlariga mos, shaxsga yo’naltirilgan dasturlar ishlab chiqarish zarur
- Innovatsion metodlarni qo’llash-ko’plab oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlar tatbiq qilinmoqda. Biroq TALIS tajribasiga asoslanib qaraganda, dars jarayonida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish darajasi hali yetarli emas

- O’qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi- TALIS natijalarida muvaffaqiyatli davlatlarda pedagog kasbi yuqori obro’ga ega ekanligi ta’kidlanadi. O’zbekistonda ham so’nggi yillarda o’qituvchilarning maqomini oshirish,moddiy rag’batlantirishga oid huquqiy asoslar yaratilmoqda,ammo kasbga bo’lgan ijtimoiy e’tiborni yanada kuchaytirish talab e’tiladi.

Xulosa qilib aytganda TALIS dasturida qayd etilgan mezonlar O’zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg’unlikda qo’llanilsa, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi yanada rivojlanadi. TALIS natijalariga asoslangan holda bo’lajak o’qituvchilar kompetentsiyasini rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat:

- Kompetentsiyaga asoslangan o’quv dasturlarini ishlab chiqish
- Uzluksiz pedagogik amaliyotni joriy etish
- Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni yo’lga qo’yish
- Refleksiv va ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirish
- Kasbiy motivatsiyani rag’batlantirish

Bu yo’nalishlarning izchil amalga oshirilishi bo’lajak o’qituvchilarning zamonaviy kompetentsiyasini shakllantirishga,milliy ta’lim tizimini xalqaro mezonlarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni. O’RQ-637, 23.09.2020y. https://lex.uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 997-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli farmoni. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari onlayn milliy bazasi

4. Teaching and learning international survey. https://www.oecd.org/education/talis/

5. Andres Shlyaxer.Jaxon miqyosidagi ta’lim.-Toshkent:”Zamin nashr”,2022

6. Karimova D.,Rakhmatova G.(2022). O’qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda TALIS tadqiqotlari ahamiyati.Oliy ta’lim muammolari ilmiy jurnali